

VETERINARIYADA MAHALLIY OG'RIQSIZLANTIRUVCHI DORI
MODDAILARINI AHAMIYATI

Ravshanov Jahonsher

Magistr Samarqand davlat veterinariya meditsinasi,
chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Annotatsiya: Ushbu moddalar ta'sirida hayvonlarning muayyan qismidagi og'riq sezuvchanlik yo'qotiladi. Bu moddalar o'ziga hos asl holiga qayta oladigan ta'siri bilan periferik nerv tizimining biror bir qismida ta'siri namoyon bo'lib, uni og'riq sezmaydigan qilib qo'yadi. Lekin bu ta'sir hayvon organizmida chuqur o'zgarishlarga olib kelmaydi.

Kalit so'zlari: Novokain, kokain, lidokain, periferik nerv, mahalliy og'riqsizlantirish, peritonit, bronxopnevmoniya, alimantar dispepsiya.

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamiz Prezidentining qator farmonlari asosida

Respublikamizda chorvachilikni hamda qishloq xo'jaligini rivojlantirish, chorvachilik fermalarini tashkil etish chetdan mahsuldor hayvonlarni keltirishga kata etibor berilmoqda. Ayniqsa chorvachilik tarmog'ini jadal rivojlantirish va zamonaviy innovatsion texnologiyalarni joriy etish natijasida hayvonlardagi ko'p kasalliklarni davolash va oldini olishga qaratilgan.

Mahalliy anestetiklar sezuvchan nerv oxiridagi tolalarda o'tkazuvchanlikni hamda qo'zg'aluvchanlikni falajlaydi, avvalo og'riq yo'qoladi, katta miqdorlari boshqa sezuvchanliklarni ham kamaytirib boradi. Odatda bunday vaqtda faqatgina og'riq sezuvchanlik emas ba'лки taktil, harorat va boshqa sezuvchanlik ham yo'qoladi. Qadim zamonlarda jarrohlik amalyotida mahalliy og'riqni qoldirish uchun tez uchuvchan suyuqliklarni qo'llangan. Mahalliy anesteziyalovchi moddalar xushbo'y kislotalar (benzoy, paraminobenzoy) ning murakkab efirlari - **novokain, dikain anestezin** va ularning amidlaridan - **lidokain** dan tashkil topgan. Bu anesteziyalovchi moddalarni operatsiya maydonining ustiga surtish. Uni qonyuktivalari, shilliq, seroz, synovial pardalarni, keng jarohat yuzalarini og'riqsizlantirish uchun qo'llash mumkin. Ko'z qonyuktivasini og'riqsizlantirishda 2% li kokain eritmasi, 5-10% novokain bilan ishlatiladi. Og'iz, burun, hiqildoq va jinsiy organlar shilliq pardalarini og'riqsizlantirish uchun ushbu eritmalar tampon yordamida ishlatiladi.

Novokain-ikki metilamin etanolning murakkab efiri, novokain gidrokslorid shaklida keng qo'llaniladi. Amalyotda eng ko'p qo'llaniladigan mahalliy anestetik Novokain eritmali, ishqorli muhitda tezda parchalanadi. Bu sezilarli ko'rinishda anesteziyalovchi faol ta'sirga ega. Turli xil kasalliklarni davolashda infiltratsion va o'tkazuvchan anesteziyalar qo'llanadi. Og'riqsizlantiruvchi ta'siri 30 daqiqadan, 1 soatgacha saqlanadi. Novokainning ta'sir ko'rsatish vaqtini uzaytirish maqsadida, unga 0,1% li adrenalini




gidroxlorid eritmasidan 2-5 tomchi, 10 ml novokain eritmasiga qo'shib qo'llaniladi. Jarrohlikda novokain qo'llash katta ahamiyat kasb etadi. Og'riqni bartaraf qilish, jarrohlik ishini bajarish shart-sharoitlarini keskin o'zgartiradi, hayvonlarni tinchlantirib, harakatsizlantirib qo'yadi, bu bilan jarrohga olib borilishi uchun yaxshi sharoit yaratiladi. Mahalliy og'riqsizlantirish uchun ishlatiladigan turli moddalar asab tizimiga ta'sir qilib reflector yoyni (yo'lini) uzadi va og'riq paydo bo'lgan joydan impulslar markaziy asab tizimiga yetib bormaydi va hayvonlarda og'riqqa nisbatan sezuvchanlik yo'qoladi.

Mahalliy og'riqsizlantirish amalda xavfsiz, shuning uchun ozg'in, anemiya, bo'g'oz, nafas olish organlari bilan kasallangan yurak tomir kasalliklari bo'lgan itlarda ham qo'llaniladi. Iloji boricha mahalliy og'riqsizlantirish usulini qo'llash katta ahamiyatga ega.

Novokain boshqa dori vositalari bilan birga oshqozon yarasi, sanchiq, travmatik peritonit, bronxopnevmoniya, alimentar dispepsiyani; oftalmologiyada –keratit, glaucoma, keratokonyunktivitni; jarrohlik amaliyotida esa tez bitmaydigan jarohat va yaralarni; akusherlik amalyotida metrit, bachadonning tushib ketishi, yo'ldoshning ushlanib qolishi, tug'ishdan keying endometritni hamda otlar tuyog'i yallig'lanishlarida (adrenalin bilan birgalikda) va boshqa shu kabi kasalliklarni davolashda qo'llaniladi. Novokainning bir martalik yuqori dozasi; otga -5mg/kg, cho'chqaga -7,5mg/kg, itga -10-20mg/kg to 30mg/kg gacha yuborish tavsiya etiladi. Novokain vena qon tomiriga yuborilib, bo'g'ozlik davrdagi toksikoz, qon tomirlar spazmi, og'riqlar, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yarasida, shuningdek yarali sanchiq, suvli yaralar va keratit kabi kasalliklarni dovolovchi vositasi sifatida ham qo'llaniladi. 0,25% eritmasi, penitsillin erituvchisi sifatida ishlatilib, uning ta'sirini uzaytiradi. Novokain reginar anesteziya uchun ham qo'llaniladi. Tez parchalanganligi tufayli yuza anestizaya uchun kam qo'llaniladi. Qonga so'rilgandan keyin rezovtiv ta'sir ko'rsatadi. Venaga sekinlik bilan yuborilsa, uning rezovtiv yaqqil ko'rinadi, markaziy nerv sistemasiga tormozlovchi tasir ko'rsatadi. Novokain periferik ta'sirga ham ega: qon tomirlar to'qimalardagi interoretseptorlarni tormozlaydi, vegetativ tugunchalarni falajlab spazmolitik tasir ko'rsatadi. Yurakning o'tkazuvchan sistemasiga ham tormozlovchi ta'sir ko'rsatadi, yurak urishi sekinlashadi.

Kokain kuchli anestetik ta'sir ko'rsatadi, shu bilan birga qonga so'rilish xususiyati ham bor. Yuzaki anesteziya uchun qo'llanganda shilliq pardalardan qonga so'rilib, zaharli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Kokain qonga so'rilgandan keyin asosan markaziy nerv sistemasiga tasir ko'rsatadi psixamator qo'zg'alish paydo bo'ladi. Yuza terminal anesteziya uchun shilliq pardalar, yaralar, jarohatlar yuzasida joylashgan sezuvchan nerv tolalarining oxiriga anestetik ta'sir ko'rsatadi. Bu xil anesteziya qishloq xo'jaligida stomatologik, urologic, xirurgik yaralarda, kuygan joylarni davolashda qo'llaniladi

Lidokain universal anestetik hisoblanadi, bu modda har xil anesteziya uchun qo'llaniladi. Anestetik faolligi novokainga nisbatan 2,5 barobar kuchliroq va 2 barobar davomliroq, zaharliligi novokaından biro z ortiqroq. To'qimalarni deyarli ta'sirlamaydi uni adrenalin bilan birga qo'llash tavsiya etiladi. Lidokain qonga yaxshi so'riladi –kuchli aritmiyaga qarshi kurashish xususiyatiga ega. Lidokain miqdori oshirilsa, uyquchanlik paydo



bo'ladi, ko'rish xususiyati kamayadi, ko'ngil ayniydi, oyoq qo'l titraydi, talvasalar ro'y beradi. Og'ir holatlarda yurak qon tomirlar faoliyati o'zgaradi nafas olish qiyinlashadi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Salimov Y., Farmonov N., Xoliqov A. Farmakologiya fanidan amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun o'quv qo'llanma. Samarqand. 2012.
- Azizova S.S. Farmakologiya. Darslik. - Toshkent. 2000.
- Харкевич Д.А. Фармакология –М «Медицина»
- Соколов В.Д. Фармакология. Учебник Санкт-Петербург. 2010.

